


**“XORIJIY TILLAR TADQIQI VA TA’LIMI MUAMMOLARI”
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**



**“XORIJIY TILLAR TADQIQI VA
TA’LIMI MUAMMOLARI”**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**MATERIALS OF THE INTERNATIONAL
SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON
“PROBLEMS OF FOREIGN LANGUAGE
RESEARCH AND EDUCATION”**



ORIENTAL UNIVERSITETI

**«XORIJIY TILLARI
TADQIQI VA TA'LIMI MUAMMOLARI»
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

*To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning
haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar.*

Toshkent – 2025

Mas'ul muharrir:

Mamataxunov Nozimjon – Oriental universiteti rektori

Ma'sul muharrir o'rinbosari:

Nasirova Malika – Oriental universiteti
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Tahrir hay'ati:

Rahmatova Gavhar – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası mudiri,
dotsent
Sharasulova Shirin – Oriental universiteti O'zbek va sharq tillari kafedrası
mudiri, dotsent
Nasirov Dilshod – Oriental universiteti G'arb tillari kafedrası mudiri,
dotsent
Ahmedova Nargiza – Oriental universiteti O'zbek va sharq tillari kafedrası
dotsenti
Sotvoldiyev Sirojiddin – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası katta
o'qituvchisi
Hasanova Shahzoda – Oriental universiteti O'zbek va sharq tillari kafedrası
katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Sodiqov Qosimjon – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Turkshunoslik” Oliy maktabi professori, filologiya
fanlari doktori
Rustamiy Salima – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası professori

*To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi
hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar.*

Ushbu to'plam Oriental universiteti Kengashining 2024-yil 24-dekabrdagi 4-sonli yig'ilishi
qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

SULAYMON ASH-SHOTIY HIKOYALARIDA “SAHRO KEMASI” – TUYA OBRAZINING BADIY TASVIRI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14878304>

Shahlo AHMEDOVA,

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Arabshunoslik oliy maktabi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
Toshkent, O'zbekiston*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Fors Ko'rfazi (arablarda Xalij) siyosiy, iqtisodiy tomondan qadimdan xalqaro siyosiy mezonda katta ahamiyatga ega bo'lib, uning jo'g'rofiy nuqtai nazardan joylashishi strategik ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Ushbu mintaqa Sharq va G'arbni bog'lovchi savdo yo'li bo'lib, Buyuk Ipak yo'lining bir tarmog'i Xalij Ko'rfaziga borib taqalib, o'z tomonidan uning sohillarida joylashgan arab mamlakatlari uchun savdo-sotiq yo'li bo'lib xizmat qilgan. Bir tomondan Ko'rfaz orqali kemalar, ikkinchi tomondan esa, sohil bo'ylab unga tutashgan sahro yo'lida tuyalarga ortilgan yuklar karvoni o'tganligi xususida so'z yuritiladi.

Shuningdek, maqolada Xalij arab mamlakatlaridan biri bo'lgan Kuvayt adabiyotining yorqin namoyandasi Sulaymon Shotiy asarlarining obrazlar dunyosi eng avvalo, sahro, tuya, Ko'rfaz va sohilbo'yi dunyosi bilan bog'langanligi ko'rsatilib, uning “Tuya” hikoyacida o'z badiiy ifodasini topgan.

Аннотация. В статье отмечается, что Персидский залив (страны арабского халиджа) имеет свое политическое, экономическое значение на международном политическом уровне с древнейших времен, а его географическое положение также имеет стратегическое значение. Это также торговый путь, связывающий Восток и Запад, ответвление Великого шелкового пути, который тянется вдоль Персидского залива и служит торговым путем на берегах арабских стран. С одной стороны, он посвящен кораблям, проходящим через залив, а с другой стороны, каравану верблюдов, груженых товарами на пустынной дороге, прилегающей к берегу. В статье также показано, что Сулейман Шотий, яркий представитель кувейтской литературы из стран Арабского залива, связывал образы в своих произведениях, прежде всего, с дикой природой, верблюдом, заливом и прибрежным миром, которые нашли свое художественное воплощение в рассказах «Верблюд».

Annotation. This article notes that the Persian Gulf (Khaleej Arab countries) has its political, economic importance at the international political level since ancient times, and its geographical location is also of strategic importance. It is also a trade route linking East and West, a branch of the Great Silk Road that stretches along the Persian Gulf and serves as a trade route on the shores of Arab countries. On the one hand, it is devoted to the ships passing through the Gulf, and on the other hand, a camel caravan loaded with goods on a deserted road adjacent to the shore.

The article also shows that Suleiman Shotiy, a brilliant representative of Kuwaiti literature from the Arabian Gulf countries, associated images in his works, primarily, with wildlife, a camel, a bay and the coastal world, which found their artistic expression in the stories «Camel».

Tayanch so'zlar: *Buyuk ipak yo'li, Xalij Ko'rfazi, Sulaymon Shotiy, Kuvayt, sahro, dengiz, “Tuya”, Sharq va G'arb, milliy qadriyatlar, savdo yo'li.*

Ключевые слова: Великий Шелковый путь, Оманский залив, Сулейман Великолепный, Кувейт, пустыня, море, «Верблюд», Восток и Запад, национальные ценности, торговый путь.

Keywords: Great Silk Road, the Persian Gulf, Suleiman Shotiy, Kuwait, desert, sea, «Camel», East and West, national values, trade road.

Fors Ko'rfazining g'arbiy sohillarida qator arab davlatlari joylashgan bo'lib, ular Shimolda Kuvaytdan, janubda to Ummongacha boradi. Bu yerlarda Ko'rfaz Arab dengizini Hind okeani bilan birlashtiradi.

Butun arab olamida aholisi iqtisodiy va moddiy tomondan yaxshi ta'minlangan, rivoj topgan mamlakatlardan bo'lgan Kuvayt, Bahrayn, Qatar, Ummon, Birlashgan Arab Amirliqi kabi arab mamlakatlari Arabiston yarim orolida joylashgan bo'lib, sohillari Fors ko'rfazidan chiqadi. Shuning uchun mazkur davlatlarni Fors ko'rfazi atrofida joylashgan arab mamlakatlari deb nomlashadi, lekin arablar bu nomni tan olmasdan, "al-Xalij (Ko'rfaz)" mamlakatlari deb atashadi.

Mazkur mintqa ko'p qismlarga bo'linishga qaramay jug'rofiy, diniy va tarixiy birlikni tashkil qiladi. Shuning bilan birga ularning hayotida ma'naviy-madaniy birlik ham kuzatiladi. Siyosiy, jug'rofiy tomondan Xalij qadimdan xalqaro siyosiy, iqtisodiy mezonda katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Uning jo'g'rofiy nuqtai nazardan joylashishi strategik ahamiyatga ega, chunki u Sharq va G'arbni bog'lovchi savdo yo'li bo'lib kelgan. Biz bu to'g'risida, zamonaviy Ko'rfaz adiblari ijodida ko'p ma'lumotlarni kuzatganmiz²⁸⁷.

Xalij arab mamlakatlaridan biri bo'lgan Kuvayt adabiyotining yorqin namoyandasi Sulaymon Shotiy asarlarining obrazlar dunyosi ham boy va ko'p ma'nolidir. Ular, eng avvalo, sahro, tuya, dengiz va sohilbo'yi dunyosi bilan bog'liq hayotning badiiy ifodasidir.

Uning yozish mahorati o'nga yaqin hikoyalar to'plamlarida namoyon bo'ldi, bular, "Rul" (دجل الرف) (1962), "Bo'g'iq ovoz" (الاصوت الخافت) (1970), "Yuqori martabaga erishgan odam" (رجل الرف) (1982), va "Men ...boshqa" (انا الاخر) (1995)²⁸⁸ kabi hikoyalar to'plamidir.

Sulaymon Shotiy zamonaviy Kuvayt hikoyanavislarining ikkinchi avlodidir. U adabiyotga XX asr 70-yillarida kirib keldi va o'zining kuvaytliklar hayotining turli jabhalarini tasvirlovchi realistik hikoyalari bilan tezda tanildi. Sulaymon Shotiy tug'ma iste'dod egasi bo'lgani uchun uning hikoyalari boshidan ancha sayqallangan, konkretlashgan bo'lib yaratildi. Yozuvchining badiiy mahorati zamon o'zgarishlarini ilg'ab olishda va nozik did bilan asarda g'oyaviy-estetik maqsadga ko'ra ifoda etishda bilindi.

Oxirgi ikkita hikoyalar to'plami orqali "Yuqori martabaga erishgan odam" va "Men ...boshqa" asarlaridan Kuvayt hikoyanavisligida va nafaqat Kuvayt, balki butun arab hikoyanavisligini kuzatuvchisi, Shotiyni o'zi uchun o'ziga xos yangi uslub yaratganini ko'radi, bu uslub uni boshqa hikoyanavislardan ajratib turdi. Uning uslubi ancha murakkab bo'lib u hikoyanavislikda yangi shakllarni qo'lladi. U tayangan asosiy yozish texnikasi bu yozuvchini hozirdan o'tmish maydoniga kirib borishi va bu hozirgi davr o'sha o'tmish sirlarini ochishga kalit bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi kun (davr) unda chegarlangan hikoyani bir lavhasini tashkil qiladi va o'tmishga qaratilib esdaliklarga yo'l ochadi. Yozuvchi fragmentarlik va assotsiativ bog'lash usullari texnikasini ishlatib va hozirgi kundagi ba'zi vaziyatlarga juda qisqa to'xtab o'tmish bilan bog'liq asarning maqsadini ochib berishga harakat qiladi.

²⁸⁷ عبد الكريم مقدر. مسألة سليمان الشاطي والبيانية. مجلة الكويت، العدد 108، الكويت، 2015

²⁸⁸ شرف محمد ياسر، القصة القصيرة في الخليج العربي، قراءات، مركز الكتاب العربي، الكويت، 1979، ص. 44-58.

Masalan, adibning “Men...boshqa” (انا الآخر)²⁸⁹ hikoyalar to‘plamini olsak, bu yerda ham shubhasiz o‘sha texnikani ko‘ramiz. Yozuvchi Shotiyning 80-yillarda o‘z ijodida intermatn usulini keng ishlatishi uning uslubida ijodiy evolyutsiyasidan dalolat beradi. “Men ...boshqa” (انا) hikoyalar to‘plamida intertekstual usuli keng qo‘llaniladi. Masalan, “Tuya” (جمل) hikoyasida yozuvchi she‘riy matnni hikoya oldidan epigraf sifatida qo‘yadi. Yozuvchi bu qit‘a kitobxonda qanday tasavvur uyg‘otishidan aslo qo‘rqmaydi, chunki u kitobxonni hikoyadagi voqea hodisalarga tayyorlaydi va matn ostidagi ma‘noni tushunishiga ishonadi.

*“Yo‘q... Ularga o‘xshagan bo‘lmasin aslo
Hatto menga ham o‘xshamagin
Zaminimiz yerimiz haqqi!
Sen ehtiyot bo‘l ey do‘stim tuya!
Hech qachon yo‘qotma umiding, egilma!
Sen boshqalarga o‘xshashdan ehtiyot bo‘l
Ularning miyalariga bosilgan tamg‘a
Miyasi to‘lgan chirigan suyaklarga,
Ulardan kelgan qabih hidlar
Yaxshi tanish yonayotgan chirindilar,
Ehtiyot bo‘l ey, do‘stim, ey tuya!”²⁹⁰*

Taniqli Kuvayt shoiri Ahmad Udviyning ushbu she‘ri Sulaymon Shotiyning “Tuya”(جمل) hikoyasi uchun ham intermatn (التناص), ham epigraf rolini o‘ynaydi, hatto epigraf mazmun jihatdan ekspozitsiya vazifasini o‘taydi. Chunki mazkur she‘r hikoyada tuya va uning xo‘jayini bilan bo‘ladigan voqea-hodisalarni idrok qilishga tayyorlaydi, bo‘lajak konfliktga ishora qiladi va munosabat bildiradi. Mazkur hikoyada hozirgi bo‘layotgan vaziyatda bemor otaning muolajasi uchun tuya suti davo sifatida ta‘kidlanadi, ammo ota negadir tuya bilan ona tuyani olib kelishga keskin norozi bo‘ladi. Tuya bilan bog‘liq obraz, otaning esdaliklarini ochib beradi va hikoyani butun sathini egallaydi.

Sulaymon Shotiyning “Tuya” hikoyasida ikki makon ko‘rinishini -sahro va dengiz muhitini kuzatsa bo‘ladi. Hikoyada ota sahroni eslaydi, bu xotiralar uning yuragiga juda yaqin va azizdir. Chunki, sahroda katta bo‘lgani uchun o‘sha muhitni yaxshi biladi. Hikoya qiluvchi ota sahroning oshig‘i ekanligi, u to‘g‘risida so‘zlayotganida hayajonlanib ketishi, junbushga kelishida bilinadi. Yozuvchi diyorini aholisini o‘tmishdagi hayoti to‘g‘risida shunday deydi:

“Xalijlik inson hayoti mobaynida, sahro bilan kurashadi. Dengiz Xalijlik uchun ko‘proq sahro mashaqqatlaridan holi qiluvchi makon, lekin dengiz ham xavfsizmakon emas. Darhaqiqat, Xalijlik inson suv va sahro orasida ancha mashaqqatli dramatik holatda yashagan bo‘lib, bu ikki olam bilanularning hayoti va mamoti masalasi bog‘langan. Ammo sahroda o‘lim topish ochiqroq va sukunatda o‘tadi. Dengiz bilan esa, aloqasi bilim va harakatga asoslangan edi”²⁹¹

Yozuvchi uchun sahro xavfli bo‘lsa ham odatiy tabiiy muhit, unda hamma narsa ayondir. Lekin yozuvchi shaharga nisbatan boshqacha fikrda.

Syujet tomondan hikoya ikkita chiziqqa bo‘linadi-o‘tmish hodisalari retrospektivada otaning esdaliklari orqali gavdalanadi, hozirgi kun voqea-hodisalari bemor otasiga muolaja izlab yurgan o‘g‘il nomidan bayon etiladi. O‘tmish va hozirgi kun vaqt kategoriyalari bir kompozitsiya yaxlitlikda berilmaydi, uning qismlari almashib turadi: hozirgi kun-o‘tmishga-o‘tmish hozirgi kunga va h.k. Xronotopik jihatdan makon kategoriyasiga kelsak, voqealar turli joylarda ro‘y beradi: sahroda, sohilda, shaharda. Ota hikoyasidan u sahrodagi ko‘chmanchi

²⁸⁹ سليمان الشطي. أنا.. الآخر. (مجموعة قصصية) عمارة الكويت. 1994. - ص. 128.

²⁹⁰ سليمان الشطي. أنا.. الآخر. (مجموعة قصصية) عمارة الكويت. 1994. - ص. 47.

²⁹¹ سليمان الشطي. أنا.. الآخر. (مجموعة قصصية) عمارة الكويت. 1994. - ص. 47.

badaviylardan kelib chiqqanligi, o'spirin yoshida oilasi qabilaviy qonli to'qnashuvlarning qurboni bo'lib, onasi zotli tuyaga mindirib sahro dan dengiz tomon uni qochirgani va unga yod bo'lgan sohildagi hayoti bilan tanishamiz. Sohil hayotiga o'rganmagan badaviy dastlab zotli tuyasidan ajralmasdan, mardikorlik qiladi, tuyasida og'ir yuklar tashiydi. Bahaybat jismlari zotli tuya shaharchaning tor tosh ko'chalarida qiynalib yuradi. Ko'p mashaqqatlardan keyin tirikchilik uchun badaviy yigit joni dili bo'lgan tuyasini sotishga majbur bo'ladi va bu qilmishidan keyin umrbod afsuslanadi. Chunki, yangi xo'jayin tuyani shafqatsiz ravishda ishlatadi, ustiga haddan tashqari og'ir yuklar qo'yadi va oxiri katta temir baklarda suv tashishga majbur qiladi. Badaviy yigit chetdan tuyasini kuzatib yuradi, siqiladi. Jonivor tezda ozib-to'zib, holsizlanib qoladi va og'ir yuk bilan oyoqda turolmaydi. G'azablangan xo'jayin uni urdiradi, ustiga ustak uni azoblashadi. Ana shunda zotli aslida yovvosh tuya mag'rurligini ko'rsatib, isyon ko'taradi, bor kuchini yig'ib oyoqqa turadi, ustidan yukini uloqtiradi va xo'jayini tomon yuguradi. Bir amallab qochishga ulgurgan xo'jayini barcha xizmatchilarini tuyaga qarshi yo'naltirib, uni dengiz tomon siljitishadi va tuya butun og'irligi bilan suvga yiqiladi. O'nlab pichoqlar tanasini tilka pora qilib tashlaydi. Tuya jon beradi. Badaviy yigit umrini oxirigacha zotli tuyasini sotganidan nadomat chekadi. Bu voqealar Kuvaytda 50-yillarda yuz berib, unda neft pullari endi yopirilib kela boshlaganda, sahro va sohilda kuvaytliklar hayoti og'ir kechib, hatto ichimlik suv yetmagan davr edi. Syujetning ikkinchi chizig'i 90-yillar boshiga to'g'ri kelib, badaviyning o'g'li voyaga yetib bemor otasini xorijga muolajaga olib ketadi, ammo shifo topmay, tuya sutidan davo qidiradi. O'g'il otasiga ona tuya va zotli tuyasini eslatuvchi boshqa tuyani sotib olishni mo'ljallaydi. Tuya savdogarlarini u saylov markazlarida uchratadi. Ular tuyalarini deputat nomzodlarga ijaraga berar ekan, chunki ular saylovchilarni ovozlari olish uchun sun'iy ravishda markazlar atrofida qadimgi sahro muhitini yaratishadi: badaviy o'tovlar qurib uning yoniga zotli tuyalarni bog'lab qo'yishar edi. Bu bilan ular an'anaviy qadriyatlarini qanchalik e'zozlayotganliklarini ko'z-ko'z qilar edilar, vaholanki o'sha o'tovlarga qimmatbaho g'arb mashinalarda yetib kelishsa ham. Shu davrga kelib Kuvaytda allaqachon elektron axborot vositalari, televideniye va INTERNET tarmog'i rivojlangan bir paytda bunday qilmishlarga nisbatan yozuvchida postmodernizmga xos kinoyaviy modus paydo bo'lganidan dalolat beradi. Yozuvchi an'anaviy qadriyatlar ustidan kulmaydi, lekin ularga ba'zida murojaat qilish paradoks-sog'lom mantiqqa zid-vaziyatlar yaratishini ko'rsatdi. Hikoyada ayni shunday vaziyat kuzatiladi.

*"Shahar saylovlarga tayyorlanayotganda u yerda bir tuya hayronlikda uzun bo'ynidagi boshini har tomonga qimirlatar edi.. Uning nigohida bir ming yillik g'amning alomati bor edi. Balki u oxirgi oy ro'y bergan voqea-hodisalarni qaytarib eslayotgan edi. Bu oyda u bilan g'alati holat ro'y berdi. Uni yo'g'on arqon bilan o'rab yuk tashish mashinasiga chiqarishdi, so'ng bir o'tov oldida tushirib atrofiga bog'lab qo'yishdi. Bir ikki kun o'tganidan keyin uni boshqacha parvarish qilib, uni ko'rsatishga va boshqalarni nigohini tortishga harakat qilishayotganini sezdi. Oxirgi kunlari ham shunday o'tdi, uni bir joydan ikkinchisiga olib borib ko'z-ko'z qilishdi"*²⁹².

Tuya sotuvchisi molini maqtay boshlaydi. Shunda bo'lajak deputat nima maqsadda tuyani ijaraga olayotganini aytadi.

*"To'xta! Ko'p maqtayverma. Kim senga aytdi bular hammasi meni qiziqtiradi, deb. Menga faqat uni shakli kerak. Nima, meni uni minadi yoki yeydi deb, o'ylaysanmi?"*²⁹³.

Savdogar darrov maqsadni angladi:

"Kim undan foydalangan bo'lsa baraka topdi va ovozlari oldingi majlisda ko'tarildi".

²⁹² سليمان الشطي. أنا.. الآخر. (مجموعة قصصية) عمارة الكويت. 1994. - ص. 49.
²⁹³ سليمان الشطي. أنا.. الآخر. (مجموعة قصصية) عمارة الكويت. 1994. - ص. 51.

Hikoya syujetiga yozuvchining saylovlar to'g'risidagi mulohazasi kirib kelib, ijtimoiy chekinish qahramonning ichki monologi orqali ro'y berdi. Mamlakatida saylovlarga bo'lgan munosabati, sub'ektiv omillarni saylovdagi roli va shaxsning ovoz berish paytida avval boshqa fikrda bo'lsa ham fikrini o'zgarishi mumkinligi to'g'risida fikr yuritadi.

Sulaymon Shotiyning mazkur "Tuya" hikoyasi qahramoni – otada - shaharga nisbatan ma'yuslik alomatini ko'ramiz. U shaharda ko'p qadriyatlar yo'qolishini va odamlar orasida tarqoqlikni borligini ta'kidlaydi, erkinlik chegaralanishini, shahar odamlarida barakasizlikni ko'radi (saylov nomzodlari qilmishlari, safsatabozlik va h.k.).

"Senga aytsam, shaharda yillab nizo to's-to'polon bo'lmaydi, lekin u kengayib erib bormoqda, shakli yo'qolib bir xillik hukm surmoqda".

Hikoyani tahlil qilar ekanmiz, o'ziga xos syujet chiziqlari va kompozitsion qurilishi, intermatnlik va kinoyali modus bilan birga, biz hikoyani yana bir jihatiga e'tibor berdik. U ham bo'lsa hikoyaning badiiy nutqiga, u o'ziga xos ifoda va shoirona ta'birlar bilan ajralib turadi.

Mana zotli tuyaning tavsifi. U bolani qabilaviy nizolardan, qonli qasos olishdan, otishmalardan qutqarib sahroda olib ketmoqda:

"U go'yo sokin qimirlamagan suvdan ravon ketayotgan kemadek. Qanchalik sahroga ko'p kirsak, shunchalik bairim (tuyam) qomatini baland tutdi, go'yo ulkan haykaldek. Qadamlarini qattik bosadi, oyoqlari go'yo yerdan ko'tarilib chiqqan yoki osmondan tushgan ustunlarga o'xshaydi. Keng ko'kragi go'yo musobaqada raqiblarini yorib o'tayotgandek tuyuladi. Qattiq boshini mag'rur baland ko'targan, go'yo u ko'rgan narsasiga qanoat hosil kilib, o'zidan ishonch va tinchlik tarqatmoqda. Oldinda ufqlarni poyoni yo'q, ortda esa dahshatli nizo, g'azab va gazak olgan yaralar".

Bu tuyaning nashidasi. Unda milliy ruh yaqqol namoyon bo'lgan! Tuyaning vasfi johiliya va mumtoz arab adabiyoti she'riyatidagi tuya vasfiga o'xshaydi! Bu vasf o'sha an'ananing davomi – hozirgi zamonaviy adabiyotda! Arabcha matnida shoironalik, va hatto saj'ni ajratsa bo'ladi.

Bunday umumlashma ixcham fikr mumtoz arab adabiyotida "adab", "maqoma", "ibratli hikoya", "xitaba" janrlarida ko'p uchraydi va bu jihatdan Sulaymon Shotiy hikoyasida ayni mumtoz an'ana davomiyligini aforizmlarni qo'llashida ham ko'zga tashlanadi:

Umuman olganda Xalij adiblari shahar bilan murakkab munosabatda - bir tomondan undagi o'zgarishlarni, kengayishlarni, bezatilishlarni ko'rib ajablanadilar, ikkinchi tomondan unda ko'p illatlarni ko'rishadi va qishloq hayotini, oldingi kunlarni qo'msab, xotiralarga berilishadi va ko'pincha bu narsa retrospektiva orqali o'z ifodasini topadi.

Ammo buni romantik kayfiyat namoyishi desak ham bo'ladi, chunki o'tmishdagi xalijlikni qishloqdagi og'ir hayotga haqiqatdan qaytishi, nazarimizda hech kimni aqliga kelmaydi. Eski sahroviy hayotga sig'inish katta shahardagi ro'y beradigan yolg'izlik, tarqoqlik va boshqa shaharga xos illatlarga norozilikdan boshqa narsa emas.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Xalij arab mamlakatlari hikoyanavisligi shakllarining yangilanishi, mavzular doirasining kengayishi, sahro, tuya, dengiz va sohilbo'yi dunyosi bilan bog'liq obrazlar va ifoda vositalarining izchillashuvida Sulaymon Shotiy milliy ijtimoiy holatlarnigina emas, balki, umuminsoniy qadriyatlar asosida insonni idrok etishda o'ziga xos yangi qarashlar olib kirayotganini kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. سليمان الشطي. أنا.. الآخر. (مجموعة قصصية) عمارة الكويت. 1994. ص. 128.
2. الشباط عبد الله احمد. ادباء في الخليج العربي. - الكويت، دار الوطنية الجديدة للنشر و التوزيع الرياض، ١٩٨٦. - ص. ٣٥٧.
3. شرف محمد ياسر، القصة القصيرة في الخليج العربي، قراءات، مركز الكتاب العربي. الكويت، ١٩٧٩. - ص. ٥٨-٤٤.
4. عبد الكريم مقدر. مسألة سليمان الشاطي والبيانية. "مجلة الكويت"، العدد 108. "الكويت"، 2015.
5. غلوم ابراهيم عبد الله. القصة القصيرة في الخليج العربي. الكويت و البحرين. مطبعة الارشاد. بغداد، ١٩٨١. - ص. ٧٣٥، ١٧-٢٠.
6. Akhmedova, Shakhlo Irgashbaevna. (2021). "SYMBIOSIS OF ARTISTIC TRENDS IN CONTEMPORARY LITERATURE OF THE ARAB COUNTRIES OF THE PERSIAN GULF." *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758) 2.09, -P.105-109.
7. Akhmedova, Shakhlo Irgashbaevna. (2021). "Ideological and artistic searches in the short stories of the arab countries of the persian gulf at the beginning of the XXI century." *Asian Journal of Multidimensional Research* 10.10, -P. 838-842.
8. Akhmedova, Shahlo. (2017). "NOVELLISTICS IN THE ARAB COUNTRIES OF THE PERSIAN GULF." *International Scientific and Practical Conference World science*. Vol. 5. No. 4, -P.9-11
9. Akhmedova, S. I. (2022). FORMATION AND IMPROVEMENT OF REALISTIC STORY IN KUWAIT AND BAHRAIN LITERATURE. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 409-415.
10. Akhmedova, Shakhlo Irgashbayevna (2023) LITERARY CREATION IN THE GILF ARAB COUTRIES . // Arab globallashuv davrida innovasion yondashuvlar va oqitish metodikasi. OzDJTU. Dekabr. 2023.-P124-129 <https://inlibrary.uz/index.php/arabic-language/article/view/28428>